

# PUDRAT SHARTNOMASI

9«11»2022 yil.

324-13-190-OB/2022-son

To'rtko'l tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (keyingi o'rirlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi) nomidan guvohnoma asosida harakat qiluvchi A.Yusupov bir tomondan va OOO SHOBBOZ TOSH (keyingi o'rirlarda "Pudratchi" deb yuritiladi) nomidan guvohnoma ustav asosida harakat qiluvchi\_boshqaruvchisi Kurbaniyazov Islam ikkinchi tomondan, quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

## 1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Pudratchi o'z tavakkalchiliga asoslangan va o'zining hamda Buyurtmachining materiallaridan foydalangan holda Buyurtmachining topshirig'iga asosan quyidagi **Yodgorlik ko'chasini 1,615 km qismini asfalt qilish bo'yicha joriyy ta'mirlash**

ishlarni bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi; Buyurtmachi esa ushbu bajarilgan ishlarni qabul qilish va haqini to'lash majburiyatini oladi.

## 2. SHARTNOMA BAHOSI

2.1. Shartnoma bahosi **1 122 506 897 (Bir milliad bir yuz yigirma ikki million besh yuz olti ming sakkiz yuz to'qson etti)** so'mni tashkil etadi.

2.2. Shartnoma bahosi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

2.3. Shartnomaning 2.1- bandida ko'rsatilgan baho dastlabki bo'lib, so'nggi baho Pudratchi taqdim etgan loyiha-smeta hujjatlariga muvofiq belgilanadi. Shartnoma bahosi inflyatsiya natijasida taraflarning kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi mumkin. Shartnoma bahosining oshishi bilan bog'liq xarajatlar Buyurtmachi tomonidan ushbu shartnomaning 3-bandida belgilangan tartibda qoplanadi.

## 3. TO'LOV SHARTLARI

3.1. Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi: oldindan 15% avans to'lovinci to'lashni amalga oshiradi (*bir vaqtning o'zida, avans to'lovi bilan bo'lib-bo'lib to'lash va h.k*)

3.2. To'lov shakli:to'lov topshiriqnomasi (*to'lov talabnomasi, topshiriqnomasi, chek va h.k*)

3.3. Shartnoma bo'yicha so'nggi hisob-kitob ishlarni bajarilgandan so'ng, qabul qilish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish hisobga olingan holda, 3 kundan kechiktirmay Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi.

## 4. MAJBURIYATLARNI BAJARISH MUDDATLAR

"Pudratchi" ning majburiylari: "Pudratchi" mazkur shartnomaga asosan, barcha majburiylarni qonunga muvofiq tarzda bajarishni o'z zimmasiga oladi. "Pudratchi" shartnoma bo'yicha, xizmatlarni belgilangan muddatda, meyorlar va normalarga muvofiq ravishda bajaradi. "Pudratchi", ko'rsatgan xizmatlarining sifatiga bir yil davomida to'la kafolat beradi. "Pudratchi" xizmatlar kuchsatish jarayonida nuqsonlari aniqlanganida, barcha kamchiliklarni o'z hisobidan bartaraf qiladi. "Pudratchi" ning huquqlari: "Pudratchi" "Buyurtmachi" dan, ko'rsatilgan xizmatlari uchun hisob-kitob to'lovlari o'z vaqtida amalga oshirishni talab qilishga. "Pudratchi" "Buyurtmachi" dan shartnoma majburiylariga to'la amal qilishni talab qilishga. "Buyurtmachi" shartnoma bo'yicha, majburiylarini bajarmaganida yoki lozim darajada bajarmaganida, buyurtmachini Qoraqalpog'iston Respublikasining Iktisodiyot sudiga berishga. "Buyurtmachi" ning majburiylari: "Buyurtmachi" "Pudtatchi" tomonidan, kursatilgan xizmatlarning hisob-kitoblarini o'z vaqtida amalga oshirish. Mazkur shartnoma bo'yicha, o'z zimmasiga olgan barcha majburiylarni qonunlarga muvofiq tarzda bajarish. Shartnomaga asosan, "Pudratchi" tomonidan, ko'rsatilgan xizmatlarni o'z vaqtida qabul qilib olish. "Buyurtmachi" ning huquqlari:

"Pudratchi" "Buyurtmachi" dan shartnoma majburiylariga to'la amal qilishni talab qilishga. "Buyurtmachi" shartnoma bo'yicha, majburiylarini bajarmaganida yoki lozim darajada bajarmaganida, buyurtmachini Qoraqalpog'iston Respublikasining Iktisodiyot sudiga berishga. "Buyurtmachi" ning majburiylari: "Buyurtmachi" "Pudtatchi" tomonidan, kursatilgan xizmatlarning hisob-kitoblarini o'z vaqtida amalga oshirish. Mazkur shartnoma bo'yicha, o'z zimmasiga olgan barcha majburiylarni qonunlarga muvofiq tarzda bajarish. Shartnomaga asosan, "Pudratchi" tomonidan, ko'rsatilgan xizmatlarni o'z vaqtida qabul qilib olish. "Buyurtmachi" ning huquqlari:

"Pudratchi"dan mazkur shartnoma bo'yicha, barcha majburiyatlarni to'liq bajarishini talab qilish. "Pudratchi Kursatilayotgan xizmatlari davomida, meyorlar va normalardan cheklanishga yo'l qo'yanida,"Pudratchi"ni ogohlantirish huquqiga ega. "Pudratchi" mazkur shartnoma bo'yicha, majburiyatlarini to'liq yoki lozim darajada bajarmaganida,"Pudratchi"ni Qoraqalpog'iston Respublikasining ho'jalik sudiga berishga haqli.

Mazkur shartnomaning majburiyatları taraflar tomonidan qonun doirasida bajarilishi lozim. Taraflar shartnoma bo'yicha, o'z zimmasiga olgan majburiyatlarning bajarilishini to'la taminlasalar shartnoma bajarilgan hisoblanadi. Shartnoma majburiyatları "Pudratchi" tomonidan, 30 kun ichida to'liq tugatiladi..

Shartnoma taraflarning kelishuviga asosan, G'aznachilik bo'linmasidan ruyxatdan o'tgan kundan boshlab 31 dekabr 2022 yilgacha amal qilinadi. Mazkur shartnomaning bajarilish muddatiga tomonlarning o'zaro kelishuviga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

## 5. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

### 5.1. Pudratchining majburiyatları:

o'z kuchi va mablag'lari hisobidan ishlarning kalendar rejasida belgilangan hajmda va muddatlarda barcha ishlarni bajarish va Buyurtmachiga loyiha hujjatlariga mos keladigan holatda ishlarni topshirish;

loyihaga muvofiq zaruriy materiallarni, qurilmalar, butlovchi ashyolarni qurilish maydonchasiga yetkazib kelish va ularni qabul qilishni, tushirib olishni, omborga joylashni hamda qurilish davomida ularni saqlashni amalga oshirish;

o'z kuchi va vositalari bilan materiallar, qurilmalar, ashyolarni joylashtirish va ushbu shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan barcha muvaqqat binolarni qurish;

ushbu shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish uchun jalg qilinayotgan ixtisoslashtirilgan tashkilotlar bilan yordamchi pudrat shartnomalari tuzilganligi haqida Buyurtmachini xabardor qilish va yordamchi pudratchilar tomonidan ishlarning bajarilishini nazorat qilish;

qurilish maydonchasida texnika va yong'in xavfsizligi hamda qurilish maydonchasining qo'riqlanishi bo'yicha zaruriy tadbirlarning bajarilishini ta'minlash;

qurilish obyektlarining sug'urta qilinishini ta'minlash;

qurilishi tugallangan obyektlarni qabul qilish

dololatnomasi imzolangandankeyin \_\_\_\_\_ kunlik muddatda

qurilish maydonchasidan o'ziga tegishli mol-mulkni olib ketish.

### 5.2. Buyurtmachining majburiyatları:

ishlarning kalendar rejasida belgilangan hajmda va muddatda Pudratchiga qurilish maydonchasini topshirish;

shartnomada belgilangan miqdorda va muddatda shartnomaning 1.1-bandida nazarda tutilgan ishlarni bajarganlik uchun Pudratchiga haq to'lash;

Pudratchining yozma xabarnomasini olgan sanadan boshlab 2 hafta ichida obyektni qabul qilib olish.

## 6. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Pudratchi o'z vaqtida buyurtmada ko'rsatilgan xizmatlarni Byurtachiga o'z bajarilmagan taqdirda, agar bu tomonlarning kelishuviga asosan ko'zda tutilgan bo'lsa, Pudratchi Byurtmachiga xizmat ko'rsatishni kechiktirib bajarganda har bir kun uchun ish xajmining qiymatining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi etkazib berilmagan mahsulotlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Shartnomaning 2.1. bandiga asosan Pudratchi tomonidan ko'rsatilgan xizmatning sifatsizligi tegishli xujjalarni bilan tasdiqlansa, u holda Byurtmachi ko'rsatilgan xizmatni qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, Pudratchidan ko'rsatilgan xizmatning qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar mahsulotlar haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Pudratchi etkazib berilgan mahsulotlar haqini o'z vaqtida to'lamanlik uchun Byurtmachi o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lman miqdorida penya to'laydi Taraflarning javobgarlik xolatlari O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xukukiyl bazasi tugrisidagi» Qonuni bo'yicha amalga oshiriladi.

## 7. FORS-MAJOR

7.1. Taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'limgan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'limgan holatlar (yengib bo'lmas kuch) oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun taraflardan birortasi ikkinchi taraf oldida javobgar emasdir. Bunday holatlar jumlasiga epidemiyalar, tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar kiradi.

7.2. Tegishli savdo palatasi yoki boshqa vakolatlari organ tomonidan berilgan guvohnoma yengib bo'lmas kuchning mavjudligi va amal qilishining davomiyligini tasdiqlash uchun yetarli hujjatdir.

7.3. O'z majburiyatlarini bajara olmayotgan taraf yengib bo'lmas kuchning mavjudligi va uning shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishga ta'siri haqida ikkinchi tarafga xabarnoma berishi lozim.

7.4. Agar yengib bo'lmas kuch holatlari uzliksiz \_\_\_\_\_ oy davomida amal qilib tursa va yaqin muddat ichida bekor qilinishi ehtimoli bo'lmasa, mazkur shartnoma taraflardan birining tashabbusi bilan ikkinchi tarafga yozma bildirishnomasi yuborish yo'li bilan bekor qilinishi mumkin.

## 8. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

8.1. Ushbu shartnoma bo'yicha yoki u bilan bog'liq holda taraflar o'tasida kelib chiqadigan barcha nizolar va ziddiyatlar taraflar o'tasida muzokaralar olib borish yo'li bilan hal etiladi.

8.2. Muzokaralar olib borish yo'li bilan nizolarni hal qilishga erishilmagan taqdirda, mazkur shartnomaning tuzilishi, uning shartlarining o'zgarishi, buzilishi, ijro etilishi, bekor bo'lishi, tugatilishi va haqiqiyligi yuzasidan kelib chiquvchi barcha nizolar, kelishmovchiliklar va talablar O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi huzuridagi Hakamlik sudida uning Reglamentiga asosan hakamlik sudyasi tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqiladi. Hakamlik sudining hal qiluv qarori taraflar uchun qat'iy va majburiy hisoblanadi.

## 9. KORRUPTSIYaGA QARShI KURASHI ShARTLARI

Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdar shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan quyidagilarni kafolatlaydi:

- qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini;
- shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l ko'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini;
- moddiy yoki har qanday turdag'i imtiyoz olinmaganligini.

Taraflar ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi. Taraflar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar yuqoridagi majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o'tkazilmasligini kafolatlaydi. Shartnomaning taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslar) tomonidan korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarga rivoja etilmaganda, ikkinchi taraf shartnomani bir taraflama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni qoplab berishni talab qilishga haqli bo'ladi.

## 9. Taraflarning rekvizitlari va imzolari:

Pudratchi:

ООО SHOBBOZ TOSH

Hisob-kitob raqami 20208000100283246001  
Беруний т., ОАТБ Кишлек-Курилиш  
банк Беруний ф.

MFO 00953

STIR 302826393

KURBANIYAZOV  
*F.I.Sh. va imzosi)*



Buyurtmachi:

To'rtko'l tuman Obodonlashtirish  
boshqarmasi  
Hisob-kitob  
401722860352337065200110014 raqami

STIR 204633184

A.Yusupov  
(vakolatli shaxs F.I.Sh. va imzosi)

-sonli shartnomaga  
ilova

## Korrupsiyaga qarshi qoidalarining ASOSIY SHARTLARI

Tomonlar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan pora, o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergen shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yohud mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olish uchun quyidagi harakatlarni qilmaydi:

pora berishni taklif qilish yoki va'da berish;  
tovlamachilik qilish;  
pora sifatida pul to'lash;  
bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik berish.

Tomonlar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilihiga kafolat beradi.

1. Agar shartnoma bo'yicha bir Tomon (davlat organi yoki takshlotining nomi) xodimining axloqqa to'g'ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga zid keladigan xatti-harakatlariga, shu jumladan, korrupsiyaga oid huquqbazarlik sodir etishga majburlashdan iborat bo'lgan faktlarga duch kelsa, bu haqda quyidagi aloqa kanallaridan biri orqali xabardor qilishi kerak:

korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan ishonch telefoni 1148;  
Telegram-kanali ("@antikorbot");  
(davlat organi yoki takshlotining nomi) rasmiy veb-saytida joylashtirilgan shakl yoki elektron pochta.

### TOMONLAR:

Bajaruvchi:

(davlat organi yoki takshlotining lavozimi)

Shobboz Tosh

(imzo)

To'rtko'l tuman Obodonlashtirish boshqarmasi

(imzo)



Hujjat elektron raqamli imzo orqali imzolangan.  
Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun QR  
Code ni skanerlang.

Imzolovchi F.I.SH.	AZIZBEK YUSUPOV YUSUPBAYEVICH
Imzolangan sana	09.11.2022 16:58
Hujjat kodi	LX8113125516
Hulosa kodi	XO4355043114

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY  
XULOSA**

**XO4355043114**

- 1. Loyihaning turi : Shartnoma**
- 2. Loyihaning nomi: Yodgorlik ko'chasini 1,615 km qismini asfalt qilish bo'yicha joriyy ta'mirlash to'g'risida**
- 3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: To'rtko'l tumani Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 09.11.2022 yilda kiritilgan.**

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**To'rtko'l tumani  
yuridik xizmat  
ko'rsatish markazi  
bosh yuristkonsulti:**



**D.A.ALLABERGENOV**

**09.11.2022**

« 9 » Ноябрь 2022 йил

Түрткүл тумани Ёдгорлик күчесини 1,615 км қисмини жорий таъмирлаш ишларини амалга ошириш учун энг яхши таклифларни танлаб олиш бўйича ўтказилган

170137 /1 сонли мажлис баённомаси

Катнашувчилар:

**Комиссия раиси:**

А.Юсупов-

Түрткүл туман Ободонлаштириш бошқармаси бошлиғи, комиссия раиси

**Комиссия аъзолари:**

М.Таджибаев

Бўлим бошлиғи, комиссия аъзоси

Р.Раймов

Бўлим бошлиғи, комиссия аъзоси

Д.Ходжаниязов

Механик, комиссия аъзоси

Х.Севиндиков

Омбор мудири, комиссия аъзоси

**Кун тартиби:**

Түрткүл тумани Ободонлаштириш бошқармаси бошлиғи энг яхши таклифларни танлаб олиш комиссияси раиси А.Юсупов мажлисда танлов комиссиясининг 5 аъзосидан 5 киши катнашаётганлигини айтиб ўтиб танлов комиссияси мажлисини очик деб эълон килди.

Ушбу танлов бўйича 2021 йил 22 апрелдаги Ўзбекистон Республикасининг 684-сонли “Давлат харидлари тўғрисида”ги Конунийнинг 58-моддасига мувофиқ энг яхши таклифларни танлаб олиш танлов ўтказилиши хакидаги элон танлов катнашувчиларининг таклифларини кабул килиш муддати 5 кун олдин бюджет ташкилоти томонидан маҳсус ахборот порталига ([etender.uzex.uz](http://etender.uzex.uz)) 2022 йил 25 Октябрь куни № 22110012170137 лот бўйича ва 2022 йил 03 Ноябрь кунги №170137 сонли баённома бўйича хеч кандай этроз келиб тушмади.

Ўзбекистон Республикаси “Давлат харидлари тўғрисида” Конун талабларига ва юқоридаги кўрсатилаган маълумотларни хисобга олиб танлов комиссияси

**ҚАРОР ҚИЛАДИ :**

1. Түрткүл тумани Ёдгорлик күчесини 1,615 км қисмини жорий таъмирлаш ишлари бўйича ўтказилган танлов хужжатларидан ҳамда танолов шартлари бўйча энг яхши таклифларни таклиф қилган ва танлов ғолиби деб ООО SHOBBOZ TOSH 1 122 506 897.00 сўм (КҚС билан бирга) шартнома тузилсин.

2. Танлов ғолиби танлов шартлари асосида шартнома тузишдан бош тортган тагдирда шартнома тузиш хукуки кейинги қатнашувчи (резерв) килиб : : ООО XIVA STANDART PLYUS белгилансин. Бунда Ғолиб катнашувчи таклиф қилган суммасидан ошмаган миқдорда шартнома тузиш мумкинлиги белгилаб кўйилсин.

3. Конун талабларига мувофиқ танлов қанашувчиларининг таклифларни кўриб чикиш ҳамда баҳолаш муддати таклифларни бериш тугашидан 10 кун муддатдан ошиб кетиши мукин эмаслиги маълумот учун қабул қилинсин.

4. Ташкилотнинг бош хисобчиси М. Нуриев танлов якуни бўйича ғолиб билан шартнома хужжатларини таёrlаш хамда шартнома тузилгандан кейин 3 иш куни ичида тегишли ахборот парталига ([etender.uzex.uz](http://etender.uzex.uz)) жойлаштириш топширилсин.

5. Танлов комиссияси котиби Р. Раимов ушбу танловга тегишли барча хужжатларни белгиланган тартибда сакланиши таъминлансан.

**Комиссия раиси:**

А. Юсупов-

Тўрткўл туман Ободонлаштириш бошқармаси бошлиғи, комиссия раиси

**Комиссия аъзолари:**

М. Таджибаев

Бўлим бошлиғи, комиссия аъзоси

Р. Раимов

Бўим бошлиғи, комиссия аъзоси

Д. Ходжаниязов

Механик, комиссия аъзоси

Х. Севиндиков

Омбор мудири, комиссия аъзоси